



UMUMTALIM MAKTABLARIDA BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN DARSLARNI TASHKIL ETISH

Xudaybergenova Rayxon

*Qoraqlpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 14- maktab boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ona tili va o'qish fanlarini tashkil etish texnologiyalari va dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *metod, o'quv jarayoni, ona tili, o'qish, yozuv, harf, tovush, pedagogik texnologiya, didaktik o'yin.*

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib bormoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish xohishi yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzularga qiziqishi bilan yuzaga keladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, maktab tizimi, texnologiyalardan foydalanish jarayonlari bizni e'tiborimizni albatta tortadi. Yangi O'zbekiston poydevorini quruvchilari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalashda ularga xalqaro toifadagi bilimlarni berish va jahon standartlariga mos ravishda adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Jamiyatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida katta o'zgarishlarni, shu jumladan, vazifalari, qarashlari, maqsadlari, tushunchalari, mazmuni, didaktikasi va o'quv jarayonlari uslublari, maktab jihozlari, ish va o'quv jarayonini tashkil etish, natijada ta'lim va tarbiya o'qituvchilar, ish vaqtini va ish odatlarini o'zgartirish, o'quv jarayonini nazorat qilish, o'quv natijalari va ishning boshqa natijalarini baholash yuzaga keladi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir.

Maktab ta'limi bolaning turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Ya'ni, maktabgacha bo'lgan davrdagi o'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan almashib, o'quvchida mas'uliyat hissini uyg'otadi. Bunda boshlang'ich ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, hamda hayotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo'shliqlarini o'z vaqtida to'ldira borish, iqtidorli o'quvchilardagi intellektual potensialni muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, o'quvchilarni kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish,



ularning salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar hamda tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o'quv tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, pedagogika fanining eng ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish, o'qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat yuritishlarini yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida mazkur tizimning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan bo'lib, bolaning ongi va tafakkuri mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash hamda rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarning o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur masalaga oid aniq vazifalar qo'yidagilarda o'z aksini topgan:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash va ko'nikmalarni shakllantirish;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Demak, yuqoridagi vazifalardan shu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqish va moyilliklarini shakllantirish, shuningdek, intilishlarini oshirish muhim omillardan biri bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish uning asosi hisoblanadi. Bunday yondashuvsiz ta'limning boshlang'ich pog'onasini sifat samaradorligini oshirishga erishish mushkuldir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqishlarini shakllantirish maqsadida, o'quv jarayoniga, yangi innovatsiyalarni kiritish, axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida ta'lim sifatini oshishiga erishiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli farmoni

2. Sidorova Galina Aleksandrovna, "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Rossiya, 2020 y.



3. Qurbonova M.F. "Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlangich sinf oquvchilarini oquv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yonaltirilgan metodlar". Xalq ta'limi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.